



O'ZBEK TILIDA BADIY TASVIR VOSITALARINING PRAGMATIK TAHLILI

Xavasxon Shokirova

NamDPI Filologiya kafedrası v.b.professori, filologiya fanlari doktori

E-mail: shokirova01.72@gmail.com

*NamDPI ijtimoiy fanlar fakulteti O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 1-bosqich
talabasi*

Abdujabborova Nilufar Rustamjon qizi

1. mail: abdudzalilovrustam@gmail.com

Annotatsiya: O'zbek tilida badiiy tasvir vositalari katta ahamiyat kasb etadi. Maqolada badiiy tasvir vositalarining, ayniqsa, o'xshatish, sifatlashning o'zbek tilida tahlili xususida so'z boradi. O'xshatish va sifatlash badiiy adabiyotda muhim rol o'ynaydigan usullar bo'lib, ular orqali mualliflar o'z fikrlarini yanada jonli va tasviriy tarzda ifodalash imkoniyatiga ega bo'lishadi. Tadqiqot davomida ushbu vositalarning lingvistik xususiyatlari, ularning maqsadi, amaliy ahamiyati chuqur tahlil qilinadi. Shuningdek, badiiy asarlarda foydalanilgan o'xshatish va sifatlash misollari orqali ularning estetik jihatlari ham ko'rib chiqiladi. Natijada, ushbu tadqiqot o'zbek tilidagi badiiy tasvir vositalarini yanada yaxshiroq tushunishga yordam beradi hamda adabiyotning estetik kuchini oshirishga xizmat qiladi.

Abstract: In Uzbek literature, artistic imagery plays a significant role. This article discusses the analysis of artistic imagery tools, particularly simile and metaphor, in the Uzbek language. Simile and metaphor are methods that play an important role in literary works, allowing authors to express their thoughts in a more vivid and descriptive manner. Throughout this research, the linguistic



characteristics of these tools will be deeply analyzed. Additionally, examples of similes and metaphors used in literary works will be examined to explore their aesthetic aspects as well. As a result, this research will help to better understand the artistic imagery tools in the Uzbek language and contribute to enhancing the aesthetic power of literature.

Аннотация: В узбекском языке художественные средства изображения имеют большое значение. В статье рассматривается анализ художественных средств изображения, особенно сравнений и качеств, в узбекском языке. Сравнения и качества — это методы, играющие важную роль в художественной литературе, благодаря которым авторы могут более живо и образно выражать свои мысли. В ходе исследования будут глубоко проанализированы лингвистические особенности этих средств. Также будут рассмотрены эстетические аспекты через примеры сравнений и качеств, использованных в художественных произведениях. В результате данное исследование поможет лучше понять художественные средства изображения в узбекском языке и будет способствовать повышению эстетической силы литературы.

Kalit so'zlar: Sifatlash, o'xshatish, epitet, emotsional ta'sirchanchik, trop, obrazlilik, konnotativ semalar, lingvopoetik.

Key words: Qualifying, Comparison, Epithet, Emotional affect (or Emotional trigger), Trope, Imagery, Connotative meanings, Linguopoetic.

Ключевые слова: качественное описание, сравнение, эпитет, эмоциональный фактор воздействия, троп, образность, коннотативные семантики, лингвопоэтика



Kirish.

Tilda tasviriylilikni vujudga keltiruvchi maxsus vositalar ham mavjud bo‘lib, ular fikrni obrazli ifodalash asosida badiiy ta’sirchanlikni kuchaytiradi. Shunday vositalardan biri sifatlash (epitet) dir. Sifatlash tropning bir turi bo‘lib, unga badiiy obrazlilikni ta’minlovchi tasviriy vosita sifatida qaralgan. Sifatlash umumuslubiy vosita. Binobarin, nutqning barcha turlarida bu vositadan foydalaniladi. U narsa, hodisaning biror xususiyatini belgi sifatida alohida ta’riflash vazifasini bajaruvchi tasviriy vositadir.

Sifatlashlar mohiyatan aniqlovchilarga yaqin bo‘lib, aniqlovchilardan emotsional ta’sirchanligi, badiiy nutqqa xosligi jihatidan farqlanadi. M.Mukarramov sifatlash va aniqlovchilarning ma’no va grammatik jihatdan farqlanuvchi beshta xususiyatini ajratib ko‘rsatgan [Mukarramov M. 2008. – 159]. A.T.Rubaylo sifatlash tropning metafora va metanomiyaga yaqin bo‘lgan turi ekanligini ta’kidlab uni badiiy aniqlovchi deb ataydi [Rubaylo A.]. R.Qo‘ng‘urov sifatlashning doimiy aniqlovchilardan farqli ravishda ekspressivligi, ko‘chma ma’noda ishlatilishi kabi xususiyatlari mavjudligini ta’kidlab, uni poetik aniqlovchi deb ataydi. Darhaqiqat, sifatlashlar, obrazlilik darajasining kuchlilik, emosional-ekspressivligi va nihoyat badiiy nutqqa xosligi jihatidan aniqlovchilardan keskin farq qiladi. M.Kojina sifatlashni narsa hodisani obrazli ifodalovchi, xarakterli xususiyatlarini ta’kidlovchi, ko‘proq badiiy nutqda qo‘llanilib, estetik vazifa bajaruvchi so‘z sifatida talqin qiladi.

Sifatlash - narsa-hodisaning biror bir belgi, xususiyatini aniq-ravshan, alohida ajratib ko‘rsatishdir. Sifatlash ikki xil bo‘ladi: Birinchisi, oddiy sifatlash bo‘lib, unda narsa-hodisalarning o‘tkinchi belgilari ta’kidlanadi. Ikkinchisi, doimiy sifatlash bo‘lib, bunda narsa--hodisalarning doimiy xususiyatlari aytiladi.

O‘xshatish - narsa-buyumning ma’lum bir belgisini boshqa narsa-buyumga solishtirishdir. O‘xshatish fikrni yaqqol ifodalash imkoniyatini beradi. Til o‘zining



beqiyos imkoniyatlarni badiiy adabiyotda yanada ravshanroq namoyon etadi. O'zbek adabiy tilining ifoda imkoniyatlarini o'z asarlarida keng ko'lamda aks ettira olgan mohir so'z ustalaridan biri Odil Yoqubovdir. O.Yoqubov "Ulug'bek xazinasi", "Oqqushlar, oppoq qushlar..." kabi asarlari bilan o'zbek nasri taraqqiyotiga katta hissa qo'shgan adibdir. Uning asarlarida tilimizning boy ifoda imkoniyatlari, ayniqsa, so'zlarning ko'chma ma'nolarda qo'llab, turli konnotativ semalarga ega bo'lishi asarlar tilining ta'sirchanligi, tasvirning jonli va ishonarli, hayotiyligini ta'minlashda katta ahamiyatga ega.

Sifatlash oddiy sifatlardan narsalarning birdan ortiq bo'lgan belgisini ajratib ko'rsata oladi. . Til o'zining beqiyos imkoniyatlarni badiiy adabiyotda yanada ravshanroq namoyon etadi. "Xuddi bugungiday seryulduz, sokin, salqin oqshom. Xuddi mana shunday oydin, tiniq va osuda oqshom". (O. Yoqubov. "Oqqushlar, oppoq qushlar...") Bu har ikkala gapda ham qator belgili sifatlash mavjud. Har ikkala gapda ham sifatlanmish-oqshom. Birinchi gapda oqshomning sifatlashi sifatida seryulduz, sokin, salqin belgilari ajratilsa, ikkinchi gapda shu sifatlanmishning sifatlashi sifatida oydin, tiniq va osudalik belgisi ajratiladi. Navoiyning quyidagibaytlari esa o'xshatish san'atga asoslanib yozilgan:

Demakka javob o'lmadi saxtko'sh

Qish ayyomi bulbuldek o'ldi xamo'sh.

Avvalo, baytni tahlil qilishdan avval uning ma'nosini tahlil qilish lozim: Ikkinchi baytda qish ayyomi bulbulga o'xshashi uchun uning "qish ayyomi bulbuldek o'ldi xamo'sh bo'lishi", ya'ni jim bo'lishi shart qilib qo'yilyapti, ana shu talabga javob bersagina, qish ayyomi bulbulga o'xshaydi. Ushbu baytda qishning bulbulga qiyoslanishi o'xshatishni yuzaga keltirgan va Alisher Navoiy bu orqali badiiy adabiyotda "tashbeh" san'atini yuzaga keltirgan.

Go'zalim, bevafo gulistonim



Bog'i umrimda toza rayhonim

G'am-u qayg'ularim hujumda

Sen eding mehribon nigohbonim.

Yuqoridagi she'riy baytning birinchi misrasida "bevafo" so'zi orqali "guliston" so'zini sifatlagan. Qo'llangan keyingi, misrada esa san'atidan foydalangan, "toza", "mehribon", "nigohbonim" so'zalari orali sifatlash yuzaga kelgan, "nigohbonim" so'zi ham badiiy adabiyotda istiora sa'natni ifodalagan.

Xulosa.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, o'xshatish asosan nutqiy hodisa hisoblanadi. O'xshatishlar turli narsalar o'rtasida aloqa o'rnatish kuchli his-tuyg'ular va tasvirlarni yaratishda ishlatiladi. O'xshatishlarni ko'plab she'riyat, nasr, drama, lirika va hatto hazil iqtiboslarida ham uchratishimiz mumkin. O'xshatishlar bejirim va ta'sirli nutq imkoniyatlariga kuch beradigan tuganmas manbaa, avlodlar o'rtasidagi obrazlar vorisiyligini saqlovchi vositadir muhtasham vosita sifatida katta etnopsixologik, lisoniy madaniyatshunoslik va lingvopoetik qimmatga ega.

Til o'zining beqiyos imkoniyatlarini badiiy adabiyotda yanada ravshanroq namoyon etadi. O'zbek adabiy tilining ifoda imkoniyatlarini adiblarimiz o'z asarlarlarida keng ko'lamda qamrab olgan. Ayniqsa, so'zlarning ko'chma ma'nolarda qo'llanib, turli konnotativ semalarga ega bo'lishi asarlar tilining ta'sirchanligi, tasvirning jonli va ishonarli, hayotiyiligini ta'minlashda katta ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ефимов А.И. Стилистика художественной речи. – М., 1961;
Стилистика русского языка. – М., 1969; Арнольд И.В. Стилистика



современного английского языка. – Л., 1973; Долинин К.А.

Стилистика французского языка. – Л., 1978.

2. Jild: 03 | Nashr: 08 | Oct 2022 “BILIG – ILMIY FAOLIYAT” nashri
<http://bilig.academiascience.org> 56-57- sahifa. TerDU O‘zbek . Tilshunosligi
Kafedrası O‘qituvchisi Botirova Maxliyo "BADIY SIFATLASH (EPITET)
LARNING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI"

3. Умуркулов Б. Бадий адабиётда сўз. – Тошкент: Фан, 1993. – 131 б.

4. Умуркулов Б. "Ўзбек бадий насрининг лингво-услубий шаклланиш
асослари" Филология фанлари доктори (DSc) илмий даражасини олиш учун
тақдим этилган диссертация. –Тошкент, 2020. – 271 б.

5. Йўлдошев М. Бадий матн лингвопоэтикаси. – Тошкент: Фан, 2008.
– 159 б.

6. Маҳмудов Н. Абдулла Қаҳҳор ҳикояларининг лингвопоэтикасига
доир. Ўзбек тили ва адабиёти. 1987. № 4.

5. Ёқубов О. Оққушлар, оппоқ қушлар. –Т.: Адабиёт ва санъат
нашриёти, 1988

6. Ўзбек тили стилистикаси. –Т.: “Ўқитувчи, 1983. 241-б.

7. Shokirova X. O‘zbek tilining sohada qo‘llanishi. – Farg‘ona, Poligraf
Super servis. 2023. – 268 b

8. Shokirova X. Tilning lingvosemiotik strukturasi (semantik-sigmatik,
sintaktik-pragmatik aspekt asosida). Filol.fan. doktori diss. – Farg‘ona,
2022. – 240 b.

9. BADIY O‘XSHATISHLARNING LISONIY XUSUSIYATLARI
Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences
VOLUME 2 | ISSUE 12 ISSN 2181-1784 Scientific Journal Impact Factor SJIF
2022: 5.947 Advanced Sciences Index Factor